



SUG'URTANI RIVOJLANTIRISHDA MARKETINGNING ROLI

Qo'Idoshev Qamariddin Mansurovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, i.f.d. (DSc)

kuldashevkm@gmail.com

Yo'Idoshova Aziza Muzaffar qizi

"Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti" magistranti

yuldasheva.aziza20@gmail.com

ARTICLE INFORMATION

Volume: 1

Issue: 11

DOI:https://doi.org/10.55439/INSURE/vol1_iss11/a1

ABSTRACT

Ushbu maqola O'zbekistondagi sug'urta kompaniyalarining ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyatini va raqamli marketing usullarini tahsil qiladi. Ijtimoiy tarmoqlar, xususan, Telegram va Instagram kabi platformalar orqali kompaniyalar o'z mahsulot va xizmatlarini keng ommaga yetkazish, mijozlar bilan muloqotni kuchaytirish, va brend obro'sini oshirish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Sug'urta, sug'urta bozori, marketing, sug'urta marketing, iqtisodiyot, statistic tahlil, Ijtimoiy tarmoqlar, Raqamli marketing, Sug'urta kompaniyalari, O'zbekiston sug'urta bozori, Mijozlar bilan muloqot, Brend obro'si, Marketing strategiyalari

KEYWORDS

Kirish(Introduction/Введение)

Dunyo miqyosida globalizatsiya jarayonlari kuchayib borayotgan bugungi kunda, O'zbekiston ham ushbu jarayonga tobora kirib bormoqda. Mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish davom etayotgan va ayniqsa, tadbirkorlik faoliyatining ko'lami keskin darajada oshib borayotganligi sug'urta xizmatlariga bo'lgan ehtiyojni yanada orttirmoqda. Ushbu holat o'z navbatida, sug'urta faoliyati va sug'urta bozorini rivojlantirish, buning uchun esa uning huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishni, sug'urtalashning yangicha shakllarini amalga kiritishni taqozo etmoqda. Tahllillar shuni ko'rsatmoqdaki, olib borilayotgan juda ko'plab tadbirlar, qabul qilinayotgan qonunlar, farmon va qarolrarga qaramasdan, mamlakatimizda sug'urta sohasi hozirgi zamон talablari darajasida rivojlanma olmayapti. Ko'p sondagi potensial sug'urtalanuvchilarda mayjud risklar sug'urtalanmay qolmoqda. Sug'urta iqtisodiyotni diversifikasiya qilish va iqtisodiy o'shishing asosiy omiliga aylanmagan. Ushbu holat mazkur sohani ilmiy jihatdan o'rghanish va tadqiq qilishni taqozo etmoqda.

Bugungi raqamli dunyoda ijtimoiy tarmoqlar sug'urta sohasida marketing va mijozlar bilan aloqani o'rnatish uchun muhim vosita sifatida faol qo'llanmoqda. Sug'urta kompaniyalari o'z mahsulot va xizmatlarini targ'ib qilishda an'anaviy usullardan tashqari, ijtimoiy tarmoqlar orqali keng auditoriyaga tez va samarali tarzda yetib borish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Sug'urta marketingi bugungi kunda nafaqat kompaniyaning xizmatlarini tanishtirish, balki mijozlarning ehtiyoj va qiziqishlarini chuqurroq tushunish, ularga mos yechimlar taklif qilish uchun ham keng qo'llanmoqda.

O'zbekistondagi sug'urta kompaniyalari ham Telegram, Instagram va boshqa ijtimoiy tarmoqlar orqali o'z mijozlariga yaqinlashish, ularga yangiliklar va tavsiyalarni yetkazish, savollarga javob berish va mijozlar bilan muntazam muloqot qilish imkoniyatiga ega. Ushbu maqolada O'zbekistondagi sug'urta kompaniyalarining ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyati, obunachilar soni, postlarning qamrovi va marketing strategiyalari tahlil qilinadi.

Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar orqali marketingning sug'urta sohasida qanday ahamiyat kasb etishi, muvaffaqiyatli kompaniyalarining o'ziga xos usullari va muammolarga duch kelayotgan kompaniyalar uchun

mayjud imkoniyatlar ko'rib chiqiladi. Maqolaning maqsadi – sug'urta kompaniyalariga raqamli marketing strategiyalarini rivojlantirish, ijtimoiy tarmoqlarda samarali faoliyat yuritish bo'yicha tavsiyalar berish va raqobatbardoshligini oshirishga ko'maklashishdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review, Analiz literaturasi).

Sug'urta sohasida marketing va uning o'ziga xos vositalarni qo'llash bo'yicha iqtisodiy mazmuniga oid nazariy mulohazalar, ayrim nazariy, uslubiy va amaliy jihatlari xorijiy olimlar David Bland, Seth Kravitz, Lev Barinskiy, Matt Wilson, Aliev B.X., Arbuzova Yu.A., Zubets A.N. kabi olimlarning ilmiy ishlarida tadqiq qilingan. O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar Mavru洛va Nilufarning "Sug'urtada axbarot texnologiyalar" kitobida bunga to'xtab o'tgan. Rahimov Oybek o'zining "Sug'urta marketingining asosiy mohiyati va joriy etish asoslari" maqolasida sug'urta marketingida reklamaning ahamiyati haqida keltirib o'tgan. Jumaboyev Dilshodbek o'zining "Sug'urta mahsulotlarini sotishning mustaqil tizimlarini sug'urta marketingiga ta'siri" nomli tezisida aynan sug'urta kompaniyalari sug'urta maxsulotlarini sotishda marketingni o'mini keltirib o'tgan.

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Methods/Методы).

Ushbu maqolada ilmiy-nazariy asos sifatida sug'urtaga oid iqtisodiy adabiyotlar, xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning O'zbekiston sug'urta bozorini yanada rivojlantirish bo'yicha ilmiy asarlari o'rnatilgan. Mavzuni o'rghanish davomida adabiyotlar qiyosiy tahlili, mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, iqtisodiy statistic tahlil va solishtirma uslubdan foydalandi.

Olingan natijalar (Results/Результаты)

"Sug'urta marketingi" marketing fanidan ajralib chiqdi va o'ziga xos xususiyatlari orqali marketingning mustaqil tarmog'iiga aylandi. Sug'urta marketingi bu rentabellikni, mijozlarni, bozorlarni egallash va saqlab qolish usullarini oldindan tahlil qilish hisoblanadi. Sug'urta marketingi sug'urtalanuvchilarning ehtiyojlarini va istaklarini to'liq hisobga olgan holda sug'urta kompaniyasining daromadini maksimal darajada oshirishga qaratilgan harakatlardir.

Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda sug'urta marketingining rivojlanish jarayoni sug'urta kompaniyalarining kundalik hayotida to'liq

tadbiq etilishi, sug'urta mahsulotlarining iste'molchilar ehtiyojlariga moslashtirilishi, arzonlashuvi, ularning samaradorligini oshirish va optimallashtirishga, shuningdek, sug'urta tovonlarini tez va oson to'lab berishga asos bo'lmoqda. Global lashuvning umumiyy tendentsiyalari va O'zbekistonga halqaro tajribaning kirib kelishidan kelib chiqqan holda, sug'urta marketingining mijoz uchun ham sug'urta kompaniyasi uchun ham sug'urta faoliyatining samaradorligini oshirishga mo'ljalangan mahsulotlar va dasturlar to'plamining joriy etilishi bilan rivojlanib boradi. Sug'urta bozorini isloh qilish va jadal rivojlanishini ta'minlash maqsadida jamiyatda sug'urta madaniyatini va aholining sug'urta bozoriga bo'lgan ishonchini oshirish, shuningdek, sug'urta sohasini ommalashtrish hamda respublika hududlarida uning salohiyatini kengaytirishga yo'naltirilgan reklama va ma'rifiy ishlarni tashkil qilish, yangi va zamonaviy sotish instrumentlarini joriy etish yo'li orqali sug'urta mahsulotlarini sotish va kanallarini kengaytirishga alohida ahamiyat berilmoqda.

Tahlillar(Analysis/Анализ).

Ijtimoiy tarmoqlar biznesni rivojlantirishda muhim rol o'yaydi. Ular tashkilotlarga mijozlar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa o'rnatishga imkon beradi, ularga mahsulot va xizmatlar haqida ma'lumot olish, fikr-mulohazalarini almashish, savollar berish va qo'llab-quvvatlash imkoniyatini beradi. Tashkilotlar, shuningdek, o'z mahsulotlarini reklama qilish, marketing kampaniyalarini o'tkazish, yangi mijozlarni jaib qilish va mayjudlarini saqlab qolish uchun ijtimoiy tarmoqlardan foydalananadilar.

Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlar tashkilotlarga ular haqidagi jamoatchilik fikrini kuzatish, mijozlarning ehtiyojlarini va afzalliklarini tahlil qilish imkonini beradi, bu esa ularga mahsulot va xizmatlarini yaxshilashga yordam beradi. Shunday qilib, ijtimoiy tarmoqlar biznesda aloqa, reklama va tadqiqotlar uchun muhim vositaga aylanmoqda.

Yuqorida fikrlardan xulosa qilgan holda yurtimizda faoliyat yuritayotgan sug'urta tashkilotlari ijtimoiy tarmoqlardagi (Telegram, Facebook, Instagram va YouTube) holati haqida ma'lumot to'plashga qaror qildik. Quyida 2024 yil 1 oktabr sanasiga bo'lgan jadvallarni taqdim qilamiz.

Biz bu yerda bugungi kunda O'zbekistondagi muhim bo'lgan ikkita ijtimoiy tarmoqni solishtiramiz. Kundalik faoliyatda zarur bo'lgan axborotlarni topish, yangiliklar bilan tanishish, sug'urtalanuvchilar bilan muloqot qilish, zarur anjomlar va texnologiyalarni sotib olish va to'lovlarini amalga oshirish uchun foydalanilmoqda. Interneta o'z kompaniyasi hamda sug'urta xizmatlari haqidagi ma'lumotlarni veb-sahifada va jamoa tarmoqlariga joylashtiruvchi kompaniyalar soni o'sib bormoqda, internet orqali xizmatlarni amalga oshiruvchi kompaniyalar soni ko'paymoqda.

Sug'urta to'lolarini bajarish uchun ham bankka borish zarurati yo'qolib bormoqda. Sug'urta sub'ektlari uchun internet yordamida yangiliklarni olish vayuborish qulay bo_lib qoldi.

Birinchi jadvalda sug'urta kompaniyalarining Telegram kanallaridagi obunachilar soni, oylik o'sish, postlar soni va har bir postning qamrovi haqida ma'lumot berilgan.

O'ZBEKINVEST va O'ZAGROSUG'URTA obunachilar soni va post qamrovi bo'yicha yetakchilik qiladi, bu ularning auditoriyaga samarali yetib borayotganligini ko'rsatadi.

GROSS SUG'URTA KOMPANIYASI yuqori post faolligiga ega (jami 923 post), ammo obunachilar soni kamaymoqda, bu kontentning dolzarbli yoki sifatida muammolar borligini ko'rsatadi.

TEMIRYO'L SUG'URTA va ALFAINVEST kabi kompaniyalar nisbatan kam obunachilar va qamrovgaga ega, bu ularning Telegramdagagi ta'siri pastroq ekanligini anglatishi mumkin.

Ikkinci jadvalda Instagram bo'yicha obunachilar soni va oylik postlar soni haqida ma'lumotlar keltirilgan.

ALSKOM SUG'URTA va SQB INSURANCE Instagramda eng ko'p obunachilarga ega bo'lib, oylik o'sishni ham saqlab kelmoqda, bu ularning vizual marketing va trend nufuzini ko'rsatadi.

KAFOLAT SUG'URTA ham sezilarli obunachilar soniga ega va mutazam post qilish orqali yuqori qamrovgaga erishmoqda.

APEX INSURANCE nisbatan kamroq obunachilarga ega, ammo barqaror qamrovi saqlab qolgan, bu esa maqsadli kontent yordamida o'sish imkoniyatiga ega ekanligini ko'rsatadi.

Jadvallarda O'zbekistondagi sug'urta kompaniyalarining ijtimoiy tarmoqlarda, xususan, Telegram va Instagramdagi faoliyati ko'rsatilgan. Ma'lumotlar obunachilar soni, oylik o'sish sur'ati, postlar soni va har bir postning qamrovi kabi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi. Ushbu tahlil ushbu

1-jadval
Sug'urta tashkilotlarinin kompaniyalarining ijtimoiy tarmog'i idagi ko'rsatkichlari

Sug'urta tashkilotining nomi	Telegram kanal havoasi	Obunachilar		Nashrlar		1 nashning reklama qamrovi
		Jami	Bir oyda	Jami	Bir oyda	
1 O'ZBEKINVEST	/ubekinvest/	3182	+80	1445	18	252
2 GROSS SUG'URTA KOMPANIYASI	/grossuzb/	1020	-71	923	32	97
3 O'ZAGROSUG URTA	/uzagrosugurta.aj/	756	-5	2	18	298
4 KAFOLAT SUG'URTA KOMPANIYASI	/kafolatuzb/	588	+7	4682	5	215
5 KAFIL-SUG'URTA	/kafiluz/	559	-41	815	18	144
6 ALSKOM SUG'URTA KOMPANIYASI	/alskom.insurance/	404	+3	381	10	138
7 APEX INSURANCE	/apexinsurances/	329	+12	281	15	179
8 TEMIRYO'L SUG'URTA	/temiryo'l/	273	-12	52	-	-
9 KAPITAL SUG'URTA	/kapitalsugurta/	271	+6	396	6	-
10 ALFAINVEST SUG'URTA KOMPANIYASI	/AlfaInvestuz/	256	-1	815	-	16

kompaniyalarining ijtimoiy tarmoqlardan mijozlar bilan muloqot qilish va marketing maqsadlarida foydalanish usullarini ochib beradi.

2-jadval

Sug'urta Kompaniyalarining Ijtimoiy Tarmog Faoliyati Tahsil	Sug'urta tashkilotining nomi	Instagram kanal havoasi	Obunachilar (oyda)	Nashrlar (oyda)	O'racha nashr (oy)
1 ALSKOM SUG'URTA	/alskom.insurance/	15 300	319	5	
2 SQB INSURANCE SUG'URTA	/sqb.insurance/	14 800	201	5	
3 KAFOLAT SUG'URTA	/kafolatuzb/	13600	153	4	
4 APEX INSURANCE	/apexinsurance.uz/	9576	305	5	
5 O'ZBEKINVEST	/ubekinvest/	6399	476	10	
6 IMPEX-INSURANCE	/impex-insurance/	6114	251	8	
7 KAFIL-SUG'URTA	/kafil_sugurta.uz/	5965	245	12	
8 EUROASIA INSURANCE	/eai.uz/	4302	375	5	
9 ASIA INSURANCE SUG'URTA	/asia_insurance.uz/	4117	227	6	
10 DD GENERAL INSURANCE	/ddgeneralinsurance/	3929	272	5	

Umuman olganda, yuqori qamrov va obunachilar o'sishiga erishayotgan kompaniyalar ijtimoiy tarmoqlarda mijozlar bilan mutazam muloqot ustuvor yo'nalish sifatida tanlaganligini ko'rsatmoqda.

Natijalar interpretatsiyasi (Discussion/Обсуждение).

Ushbu jadvallarni ko'rish orqali O'zbekistondagi sug'urta kompaniyalarini ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanib kelmoqda, lekin ayrim kompaniyalar o'z auditoriyasiga yetib borishda, obunachilarini jaib qilish va ularning e'tiborini saqlab qolishda muammolarga duch kelmoqda.

Mazkur ma'lumotlar bir qator tendensiyalarni ko'rsatadi.

Platformalardan Foydalanish: Telegram va Instagram sug'urta kompaniyalarini uchun auditoriyaga yetib borishning asosiy platformalari hisoblanadi. Yuqori qamrovgaga ega kompaniyalar ushbu platformalarni mijozlarga ma'lumot yetkazish va ular bilan muloqot qilishda samarali ishlamoqda.

Kontent Strategiyasi: Yuqori natijalarga ega kompaniyalar mutazam kontent strategiyasini olib boradi. Masalan, O'ZBEKINVEST va ALSKOM SUG'URTA mutazam postlar orqali o'z obunachilarini sonini oshirishga erishmoqda. Obunachilarini Jaib Qilish: Obunachilar soni kamayayotgan kompaniyalar, masalan GROSS SUG'URTA, kontentni foydalanuvchilarining qiziqishlariga moslashtirish ustida ish olib borishlari lozim.

Maqola bo'yicha xulosva takliflar (Conclusions/Заключения).

O'zbekistondagi sug'urta kompaniyalarini ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanib, mijozlar bilan muloqotni kuchaytirish, brendni ommalashtirish va kerakli ma'lumotlarni taqdim etishga intilmoqda. Ammo, faqat bir nechta kompaniya yuqori qamrov va obunachilar o'sishiga ega bo'lib, boshqalari esa o'z strategiyalarini qayta ko'rib chiqishga muhatoj. Muntazam va dolzarb kontent, shuningdek, foydalanuvchilar bilan muloqot, Telegram va Instagramdagi faol auditoriyani ushlab turishda muhim rol o'yaydi.

Kontentni Optimallashtirish: Obunachilar kamayagan yoki o'sishi to'xtagan kompaniyalar kontent relevanti va auditoriya qiziqishlarini chuqurroq tahlil qilishlari kerak.

Muloqot Strategiyasi: Telegramda jonli savol-javob sessiyalari yoki so'rovnomalar o'tkazish orqali auditoriyani yanada jalb qilish mumkin.

References:

- 1.David Bland (2008) Insurance: Principles and Practice. Compiled by David Bland, The Chartered Insurance Institut, Great Britain, 2008, 329 pg.
- 2.Seth Kravitz, Lev Barinskiy, Matt Wilson (2010) "Mastering Insurance Marketing" UK, 42 pg.
- 3.Алиев Б. Х. (2011) Маркетинговые аспекты развития региональных рынков страхования в России / Финансы и кредит. 15 (447). – с. 15-19.
- 4.Арбузова Ю.А., Шепелин Г.И. (2017) Особенности страхового маркетинга в современных условиях / Научный журнал. Экономика и бизнес №2. – с. 51-54.
- 5.Зубец А.Н. (2001) Маркетинговые исследования страхового рынка - М.: Центр экономики и маркетинга, - 244 с.
- 6.Шеннаев Х.М. Сугурта агентлари учун кўлланма. –Т.: infoCOM.UZМЧЖ, 2010. – 206 б.
- 7.Ашрафханов Б., Мирсадиков М. Развитие страхового законодательства Республики // Рынок, деньги и кредит. –Т., 2002, № 11-12. – 30 б.
- 8.Кўлдошев К.М. Сугурта бозори. Ўқув кўлланма. – Т.: Молия-иктисод, 2011. – 65 б.
- 9.Абдурахмонов И.Х. Ўзбекистон Республикасида жавобгарликни сугурталашнинг амалиётини такомиллаштириш. Автореф. дисс. ... и.ф.н. – Т., 2010 й. – 26 б.
10. Mavrulova N. Sug'urtada axborot texnologiyalari o'quv qo'llanma –T.,«Nihol print» OK, 2022. – 120 b...